

## **KATTA YUECHJILAR DAVLATI VA ULARNING MULKLARI JOYLASHGAN HUDDUDLAR**

**Beknazarov Sobirjon Barotboy o'g'li.**

*Xalqaro Innovatsion Universitet Tarix fani o'qituvchisi*

**Azimov Murodjon**

*Xalqaro Innovatsion Universitet*

*Tarix fakulteti I kurs talabasi .*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Katta yuechjilar davlati va uning joylashgan o'rni haqida so'z yuritlgan. Yuechjilarning O'rta Osiyoda qudratli davlat barpo etganligi, ular davrida hunarmandchilik, binokorlik, savdo-sotiqligi kabi sohalarning rivoj topganligiga alohida ahamiyat berilgan.*

**Kalit so'zlar.** *Mode, O'rta Osiyo, yuechji, Gansu, Daxya, Bobotog', Ayrитом, Artaban, tohar, Amudaryo, Ganshi, Gaofu, Lanshi, Kushon. Geray va boshq.*

**Аннотация.** В этой статье речь идет о Великом государстве Юэчжи и его местоположении. Особое значение придается тому факту, что юэчжи создали мощное государство в Центральной Азии, и что в их время развивались такие отрасли, как ремесла, строительство и торговля.

**Ключевые слова.** *Моде, Средняя Азия, Юэчжи, Ганьсу, Даксия, Боботог, Айритом, Артабан, Тохар, Амударья, Ганши, Гаофу, Ланши, Кушан. Герай и др.*

**Annotation.** *This article discusses the Great Yuezhi state and its location. Particular attention is paid to the fact that the Yuezhi established a powerful state in Central Asia, and that during their time, such industries as crafts, construction, and trade developed.*

**Keywords:** *Mode, Central Asia, Yuezhi, Gansu, Daxia, Bobotog, Ayrитом, Artaban, Tohar, Amu Darya, Ganshi, Gaofu, Lanshi, Kushan. Geray, etc.*

Mil avv. Ikkinci asrning ikkinchi choragida shanyuy hukmdori Mode (miloddan avvalgi 174-yilda vafot etgan) boshchiligidagi xunnnlar tomonidan siqib chiqarilgan yuechjilar asta-sekin O'rta Osiyoning shimoli-sharqiga va janubiga ko'chib o'tishgan va ko'chish yo'llari bo'ylab boshqa ko'chmanchi qabilalar bilan gohida muvaffaqiyatli, gohida esa mag'lubiyatli urushlar olib borishgan.

Xitoy yilnomalarida Markaziy Osiyoga ko‘chib o‘tgan yuechjilarni, xitoylik diplomat va razvedkachi Chjan-Szyan ma’lumotlarida keltirilgan “boshqalarga ergasha olmagan va Janubiy tog‘lar (Nanshan)da qolib ketgan”<sup>71</sup> “yuechji xalqining kichik qismini” tashkil etuvchi xyao yoki syao-yuechji, ya’ni Kichik yuechjilardan farqli o‘laroq, da-yuechji, ya’ni Buyuk yoki Katta yuechjilar deb nomlashgan.

Bu voqealardan ko‘p o‘tmay, miloddan avvalgi 140-130-yillar oralig‘ida yuechjilar Baqtriyani bosib oladi. Miloddan avvalgi 128 yoki 126-yillarda Chjan Szyan butun Daxyta (Baqtriya) yuechjilar tomonidan zabit etilganligini ta’kidlab, “ularning Guy-Shuy daryosining (Amudaryo) shimoliy tomonida joylashganligini” qayd etadi<sup>72</sup>.

Bu paytda yuechjilarning kelib joylashgan o‘rni (ya’ni bosh qarorgohi) Xolchayon<sup>73</sup> o‘rnida bo‘lgan. Ushbu ko‘hna shaharning geografik sharoiti yuechjilarning ona yurti Gansuning sharoitiga juda o‘xshaydi: shimoldan Hisor tizmasining qorli tog‘lari, sharqdan - cho‘llar, Bobotog‘ tog‘lari va Surxondaryoning unumdar vodiylari bilan o‘ralgan. Ammo ushbu taxminni asoslovchi muhim dalil shuki, bu yerda yuechjilar davridagi eng qadimgi sulolaviy ibodatxona joylashgan bo‘lib, ularning bo‘rtma tasvirlarida yuechji-toxarlar tomonidan Dahya (Baqtriya)ning bosib olinishi tarixi aks ettirilgan. Rabotakda ham, Suxko‘talda ham, Ayritomda ham bunday tasvirlar uchramaydi. Baqtriya zabit etilgandan so‘ng yuechji-toxarlar Parfiya shohi Artaban bilan urushga kirishdilar (miloddan avvalgi 128-124-yillar) va Artaban bu urushda jarohat olib, vafot etdi (Justin XLII,2,2.). Bu vaqtida parfiyaliklar hali Apavarktikendan sharqdagi hududlarni, xususan, Marg‘iyona shahrini egallagan emas edilar va shuning uchun ham urush Amudaryo bilan Tejen yoki Kelifning O‘zboy hududi o‘rtasida kechib, u yerda yuchji-toxarlar Baqtriya va Sug‘diyonadan Amudaryodagi kechuv joylari orqali Kerki va Xo‘ja-Salorga o‘tib oldilar. Parfiyaliklar o‘sha paytda Baqtriyaning bir qismini ham bosib olishmagan, chunki parfiyaliklar sharqda o‘zlarining mulkclarini Amudaryogacha bo‘lgan

<sup>71</sup> Bichurin N.Ya. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. 2. М. –Л., 1950. 227-228-betlar.

<sup>72</sup> Bichurin N.Ya. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. 2. М. –Л., 1950. 227-228-betlar.

<sup>73</sup> Pugachenkova G.A. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Toshkent, 1966. 248-bet.

hududlarga faqat Mitridat II davridagina (miloddan avvalgi 124/123-88/87 yy) kengaytirilganligi ma'lum<sup>74</sup>.

Tashqi uruslardan tashqari, yuechji-toxarlar yuqorida aytib o'tilgan Baqtriyaning ko'chmanchi bosqinchilari bilan ham o'zaro urushlar olib borishgan. Pompey Trogning "Muqaddima"si oxiridagi "Asianlar qanday qilib toxarlar podshosi bo'lgani" sarlavhali maxsus 42-bobda shunga ishora qilingan (aynan bobning o'zi afsuski saqlanib qolmagan).

Pashxurt soyligidagi Tillabuloq manzilgohidan topilgan yuechjilarga mansub otliqning kamondan o'q otayotgani tasvirlangan yassi suyakning topilishi juda ham ahamiyatlidir. Bu soylik bo'ylab Kampirdagana darasi orqali Parfiyaga o'tish mumkin bo'lgan<sup>75</sup>.

Urushlar va ichki nizolarni tugatgandan so'ng, yuechji-toxarlar o'z davlatlarini qurishni bshladilar. Manbalarga ko'ra, bu vaqtda Baqtriyada Katta yuechjilar davlati shakllangan bo'lib, Xitoy solnomalarida u Katta yuechji deb nomlangan. Chjan-Szyan bu davlatni chorvasi ortidan doimo bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yuradigan ko'chmanchilar sultanati sifatida tavsiflaydi<sup>76</sup>. Davlatning poytaxti Dalvarzintepa va Baqtriya bilan aynan bitta deb sanalgan Ganshi (Tyanshi) yoki Lanshi shahri bo'lgan<sup>77</sup>. Katta yuechji davlati tarixida poyataxti bir necha bor o'zgargan.

Aholisi 100 ming xo'jalik va 100 ming jangovar qo'shindan iborat bo'lgan. Katta yuechjining tasarrufiga beshta qaram yerlar (xi-xeu): Xumi, Shuanmi, Guyshuan, Xeytun (Xisy) va Gaofu (yoki Dumi) kirgan<sup>78</sup>.

Baqtriyada podshohlar ilohiy sanalgan Yunoniston-Baqtriya podsholigi o'rniga, o'z tangalarini (Geliokl tangalariga o'xshash) zarb qiladigan, oliv hukmdor boshchiligidagi beshta yetarlicha mustaqil va o'z tangalarini zarb qilish huquqiga ega bo'lgan viloyatlarni birlashtirgan konfederativ davlat tuzildi. Boshqaruv shakli va

<sup>74</sup> Rteladze E. V. Parthians in the Oxus valley and Kampyrtepa // MTE. X nashr. 2017. 107-115;

<sup>75</sup> Rteladze E.V. Александр Македонский в Трансоксиане. SPb., 2019. 80-84-betlar.

<sup>76</sup> Bichurin N.Ya. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. 2. М. –Л., 1950. 227-228-betlar.

<sup>77</sup> Tafsilotlar uchun qarang, masalan: Abdullayev K. La localization de la capitale des Yueh-chih // La Bactriane au Carrefour des routes et civilisations de l'Asie centrale. Proceedings of the conference of Termez 1997. Paris, 2001. 197-214-betlar.

<sup>78</sup> Bichurin N.Ya. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. 2. М. –Л., 1950. 227-228-betlar.

davlat qurilishi shakliga ko‘ra, Katta yuechjilar davlati avvalgi ellistik Baqtriya davlatlaridan butunlay farq qilar edi.

Ye. A. Davidovichning fikriga ko‘ra, Baqtriya tarixidagi butun yuechji davrini uch bosqichga bo‘lish mukin (uchta manbaga asoslanib)<sup>79</sup>:

I bosqich (Chjan-Szyan; miloddan avvalgi 130-125-yillardagi voqealar). Katta yuechjilar Daxya viloyatini zabit etdilar va Amudaryoning shimoliga o‘rnashadilar. Saltanatning janubiy chegarasi Daxya edi.

II bosqich (Xan-shu, miloddan avvalgi 25-yilgacha bo‘lgan davr voqealari). Katta yuechjilar davlatining shakllanishi va yanada ravnaq topishi. Davlat poytaxti Amudaryoning shimolida joylashgan, davlatning janubiy chegarasi – Gibin viloyati (Kashmir yoki Gandxara). Davlat hududida si-xou yoki xi-xie<sup>80</sup> (yabg‘u) tomonidan boshqariladigan beshta viloyati – mulklari mavjud bo‘lgan.

III bosqich (Xou Xan-shu, ma’lumotlar milodiy 125-yilga yaqin). Katta yuechjilar birlashgan davlatining qulashi; yuechji yabg‘ularining beshta viloyati – mulklarini yakkalash va erkinligini mustahkamlash. Poytaxti Lanshi (Baqtra) shahrida joylashgan. Yabg‘u Kushon Kiotszyukyu (Kujula Kadfiz) qolgan to‘rt viloyatni o‘ziga bo‘ysundiradi va shu bilan Kushonlar davlatiga asos yaratadi. Kujula Kadfiz Baqtriyani bo‘ysundirganidan so‘ng endi qo‘shni viloyatlar sari otlanib, Sug‘iyona, Marg‘iyona, Hindistonning shimoli-g‘arbiy qismini ham egallashga erishadi. Kiotszyukyu sakson yildan ortiq umr ko‘radi. Vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Yangaochjen taxtga o‘tiradi va yana bir bor Hindistonni zabit etadi... Shu vaqtadan boshlab yuechji eng qudratli va badavlat sulola bo‘lib qoladi<sup>81</sup>.

Demak, Kujula Kadfizdan so‘ng hokimiyat uning o‘g‘li Yangaochjen, ya’ni tangalardagi yozuvlarga ko‘ra aslida Vima Kadfiz qo‘liga o‘tadi. U ko‘proq Kadfiz II nomi bilan mashhur. Kushoniylar hokimiyati chegaralarini kengaytirib borish borasida Kadfiz II ham bo‘s sh kelmagan. Chunonchi, Hind daryosi quyi oqimlari,

<sup>79</sup> Davidovich Ye.A. Первый клад тетрадрахм Кушанса “Герая” // VDI. 1976. № 4. 59-61-betlar.

<sup>80</sup> Turkcha yabg‘u unvoni bilan aynan bir xil ma’noga ega bo‘lgan “xi-xie” atamasi, o‘z o‘rnida xitoycha yavuga unvonining ham ekvivalenti hisoblanadi. Qarang: Fray R. Наследие Ирана (Ingliz tilidan V.A.Livshis va Ye.V. Zeymal tarjimasi) o‘zgartirilgan va to‘ldirilgan ikkinchi nashri. M., 2002.

<sup>81</sup> Центральная Азия в кушанскую эпоху. Т. 2, Москва, 1974.

hatto Gang daryosi vodiysigacha bo‘lgan yerlarni ham o‘z ixtiyori doirasiga tortishga muvaffaq bo‘ladi<sup>82</sup>.

Kushoniylar nomi bilan bog‘liq sultanatning eng yuqori cho‘qqiga chiqqan davri Kanishka hukmronligi yillariga to‘g‘ri keladi (taxminan I asr oxiri – II asr birinchi choragi). Bu vaqtida sultanat Hindiston markazlarigacha cho‘zilib, Hindistonning janubiga ham tahdid sola boshlaydi. Bundan tashqari Sug‘diyona orqali Farg‘ona, Sharqiy Turkiston ham kushoniylar hokimiyatini tan oladi<sup>83</sup>.

Shimoliy Baqtriya birinchi bosqichda yuechjilarning kelib joylashgan asosiy hududlaridan biri bo‘lgan. Ushbu hududda yuechji davrida tashkil topgan yoki aholi jadal suratda ko‘chib o‘tgan juda ko‘p ko‘hna shaharlar va manzilgohlar topilgan<sup>84</sup>.

Bu davrga oid ko‘plab eski qabrlar ham topilgan va o‘rganilgan, ular (Tulxar, Babashov, Rabat I-III, Ayrитом va boshqalar) yuechji-toxarlar, shuningdek, Baqtriyani istilo qilib kelgan boshqa ko‘chmanchi qabilalarga tegishlidir<sup>85</sup>.

Yuechjilar davridagi Baqtriyaning siyosiy tarixini tiklashda yuechji davri numizmatik ma'lumotlari – “Shafqatsiz Geliokl” nomini olgan tangalar, Yevkratid (miloddan avvalgi 171-150-yillar) obollariga taqlidlar, Fraat IV (miloddan avvalgi 38 –milodiy 3/2-yillar) va Fraat (miloddan avvalgi 3 – milodiy 3-yillar) tangalariga taqlidlar, Sapadbiz tangalari, Kushon (“Geray”) tetradraxmalari va obollari muhim ahamiyat kasb etadi<sup>86</sup>.

Shimoliy Baqtriya tarkibida dastlab ikkitagina viloyat shakllangan, so‘ngra ularga asosan mamlakatning janubiy qismini qamrab olgan yana uchta viloyat qo‘shilgan<sup>87</sup>.

Miloddan avvalgi birinchi asrda xunnlar davlati ag‘darildi. Uning janubiy hududiga kirgan hududlarni Xitoy bosib oldi. Janubiy Sibir va Mo‘g‘ulistondagi

<sup>82</sup> Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. -Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001. 65-bet.

<sup>83</sup> Sinxa N. K., Banerdji A.Ch. Истории Индиию. Москва, 1954, с. 80-81.

<sup>84</sup> Rtveladze E.V. О генезисе кушанских поселений Северной Бактрии // VDI. 1978. № 4. 108-116-betlar.

<sup>85</sup> Mandelshtam A.M. Кочевники на пути в Индию. М. – Л., 1966; Litvinskiy B.A., Sedov A.V. Культи и ритуали кушанской Бактрии Погребальный обряд. М., 1984; Abdullayev K. Nomad migration in Central Asia // After Alexander: Central Asia before Islam. London, 2007. 79-83-betlar.

<sup>86</sup> Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V. Северная Бактерия – Тохаристон. Очерки истории и культуры. Древность и средновековье Toshkent, 1990. 47-bet.

<sup>87</sup> Masson V.M., Romodin V.A. Истории Афганистана. Т. 1. М., 1964; Staviskiy B.Ya. Кушанская Бактрия: Проблемы истории и культуры

qabilalar g'arb tomonga siljidi. Oltoy va Sharqiy Qozog'istonda yangi podsholik paydo bo'ldi. G'arbgaga qarab siljish davom etib, Don va Karpatgacha borildi<sup>88</sup>.

O'rta Osiyoga kirib o'rashgan yuechji xalqi 5 ta xonadonga bo'linib, har bir xonodon o'rtasida taxt uchun kurash boshlanib ketdi. Bular Xyumi, Shaunmi, Dumi, Xise va Guyshuan (Kushon) xonadonlari bo'lган.

Ular o'rtasidagi o'zaro kurashda Guyshuan g'olib chiqdi va Kushon podsholigining tamal toshi qo'yildi. Kushon podsholigi deb e'lon qilingan ushbu davlat keyinchalik qudratli Kushon imperiyasiga aylandi. Kushon davlatining yuksalish davri (I-III asrlar) O'rta Osiyoda quldorlik tuzumining eng avj olgan davri edi.

Kushonlar mintaqadagi deyarli barcha siyosiy birliklar, makonlarni va hatto qo'shni mamlakatlarni ham bir siyosiy markaz atrofida birlashtirib, o'zbek davlatchiligi tarixida sultanatchilik bosqichini ochgan siyosiy kuch hisoblanadilar. Ular shimolda Shosh, sharqda – Sharqiy Turkiston, g'arbda Eron, janubda Shimoliy Hindistongacha bo'lган ulkan hududni birlashtirishga erishganlar. Keyinchalik bu an'ana eftaliylar, somoniylar, anushteginiylar, temuriylar, ma'lum ma'noda shayboniylar hukmronligi davrida ham davom etdi<sup>89</sup>.

Shuningdek, Kushon podsholigi davrida Hindistonning bir qismi egallandi va shu bilan birga buddaviylik dini O'rta Osiyoga kirib keldi va Islom dini yoyilguncha buddaviylik mavjud bo'lган. Binokorlik, kandakorlik, me'morchilik, savdo va hunarmandchilik kabi sohalar Kushon davlati davrida o'zining eng yuqori darajasida yuksaldi. Aynan shu davr me'morchiligidagi budda haykallari yasash an'anaga kirib qolgan. Buning tasdig'ini yurtimizning turli hududlaridan topilgan buddaviylikka oid haykaltaroshlik namunalari ko'rishimiz mumkin. Bu sohalarning yuksalishi Kushon davlatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Xullas, Kanishka zamonida Turkistonning asosiy qismlari bir siyosiy hokimiyat ostida birlashib, qudratli sultanat vujudga kelgan. Mintaqaning qadimdan dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan Sug'diyona, Marg'iyona, Baqtriya, Farg'ona viloyatlarida kushoniylar davrida ham yerni qayta ishslash, sun'iy sug'orish borasidagi tajriba yanada takomillashib borgan.

<sup>88</sup> Jo'raqulov O. Qashqadaryo mang'itlari. -Toshkent: Fan nashriyoti, 1993. 7-8-betlar

<sup>89</sup> Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. -Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001. 64-bet.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bichurin N.Ya. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. 2. М. –Л., 1950.
2. Pugachenkova G.A. К проблеме художественной культуры Северной Бактрии. Toshkent, 1966.
3. Rtveladze E. V. Parthians in the Oxus valley and Kampyrtepa // MTE. X nashr. 2017.
4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. -Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001.
5. Sinxa N. K., Banerdji A.Ch. Истории Индию. Москва, 1954.
6. Rtveladze E.V. О генезисе кушанских поселений Северной Бактрии // VDI. 1978. № 4.
7. Mandelshtam A.M. Кочевники на пути в Индию. М. – L., 1966.
8. Litvinskiy B.A., Sedov A.V. Культи и ритуали кушанской Бактрии Погребальный обряд. М., 1984.
9. Abdullayev K. Nomad migration in Central Asia // After Alexander: Central Asia before Islam. London, 2007.
10. Pugachenkova G.A., Rtveladze E.V. Северная Бактерия – Тохаристон. Очерки истории и культуры. Древность и средновековье Toshkent, 1990.
11. Masson V.M., Romodin V.A. Истории Афганистана. Т. 1. М., 1964.
12. Staviskiy B.Ya. Кушанская Бактрия: Проблемы истории и культуры
13. S.Beknazarov, H. Doniyorova. Turkiy xalqlar va Kushon davlatining qadimgi davlatchilik rivojida tutgan o'rni "Qashqadaryo vohasining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi ravnaqiga qo'shgan hissasi". - Qarshi, 2025. 618 bet.
14. Beknazarov S, Qayumova M., "Kushon davlatida taxt vorisligi tartibi va Kushon podsholigi solnomasi". "Qashqadaryo vohasining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi ravnaqiga qo'shgan hissasi". - Qarshi, 2025. 618 bet.